MILLIY TEATR “OYINA” JURNALI NIGOHIDA

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ТЕАТР В ОСВЕЩЕНИИ ЖУРНАЛА «ОЙИНА»

THE NATIONAL THEATRE AS REFLECTED IN THE “OYINA” MAGAZINE

G‘OYIBNAZAROVA Mahmuda
Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
PhD student
5, Shahrisabz, 100060, Tashkent, Uzbekistan.
e-mail: karimovamahmuda17@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2026/1/2

Annotatsiya. *Ushbu maqola Turkiston jadidchilik milliy harakatining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1913–1915-yillarda Samarqandda nashr etilgan “Oyina” jurnali sahifalaridagi milliy teatrga oid maqolalar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda jadid milliy teatrining paydo bo‘lishi haqida so‘z yuritilgan.*

Turkistonda zamonaviy ko‘rinishdagi milliy teatr qadimdan shakllanib kelayotgan xalq og‘zaki dramalari, maydon tomoshalari, qo‘g‘irchoq teatri an’analariga tayangan holda, jadidlarning madrasa ta’limi bilan birga xorijda oshirgan malakalarining mevasi o‘laroq Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud O‘qimagan bolaning holi” asari sahna yuzini ko‘rdi. Maqolada ayni shu jarayonlar matbuotdagi chiqishlar, xabarlarga tayanilgan shaklda yoritilib, jadidlarning teatrdan ko‘zlagan asl maqsadlari, milliy teatrning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, sahna asarlarida ko‘tarilgan asosiy masalalar, tomoshani tashkil etishdagi muammolar, shuningdek, Turkistonda tatar va ozarbayjon teatr guruhlarining faoliyati tadqiq qilingan.

Havaskor teatr guruhlarining tuzilishi hamda ularning faoliyati, xususan, ibratnomaning ilk marta sahnada havaskor yoshlar tarafidan ijro etilishi Toshkentda emas, balki Samarqandda, so‘ngra Qo‘qonda, undan keyingi jarayonlarda esa Toshkentda Kolizey binosida bo‘lganligi, teatrning qanday kechganligi milliy matbuot ma’lumotlariga tayanilgan holda ochib berilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy sahna asarini yozish bilan bir qatorda sahna madaniyati, muqallidlarga aloqador ko‘rsatmalar, tomoshabinlarga tegishli bo‘lgan yo‘riqnomalar haqida ham tushuntirish, ta’lim berish ishlari olib borish kerakligi haqidagi fikrlari maqola sahifalaridan o‘rin olgan.

Sahna asarlarining yozilishi va ijro etilishiga birinchi navbatda mustamlaka hukumatining qarshiliklari, keyingi bosqichda esa, mavjud diniy jaholat va mutaassiblikning ta’siri natijasida yuzaga kelgan bahs-munozaralar bayon qilinadi. Xususan, sahna asari ijro etilishidan avval rus tilida hukumatga taqdim qilinishi belgilangan, hukumat roziligidan keyingina teatr tashkil etilgan. Ayni o‘sha vaqtlarda tomoshabinlar qatoridan xufiyalar ham joy olgan. Ba’zi vaqtlarda tashkilotchilar javobgarlikka tortilgan, ba’zan esa tomosha oxiriga yetmasdan to‘xtatib ham qo‘yilgan. Sahna asari ijro qilinib bo‘linganidan keyin esa aholi yetmish firqaga bo‘linib, turli fikrlarda bo‘lganligi ham matbuotdagi chiqishlarda o‘z aksini topgan. Bunga misol qilib, “bizga odam o‘ldursanglar, bundoq qilib o‘ldurasizlar”, deb odam o‘ldirishni o‘rgatyapsizlarmi”, yoki “teatr shariatga zid” ma’nosidagi qarashlarni ko‘rsatish mumkin. Ushbu yuzaga kelgan vaziyatda millat ziyolilari jamiyatga kerakli javobni berganliklari maqolada bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. *Milliy matbuot, milliy teatr, qo‘g‘irchoq teatri, “Padarkush yoxud O‘qimagan bolaning holi”, bid’ati hasana, “Turon” truppasi, “Jamiyati imdodiya”.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу статей о национальном театре, опубликованных Махмудходжой Бехбуди – основателем туркестанского джадидского национального движения – на страницах журнала «Ойина» (Самарканд, 1913-1915 гг.), в которых рассматривается процесс становления джадидского национального театра.*

В Туркестане современный национальный театр сформировался на основе традиций народных устных драм, площадных представлений и кукольного театра, а также благодаря образовательному опыту джадидов, полученному как в медресе, так и за рубежом. В результате этого на сцене появилась пьеса Махмудходжи Бехбуди «Падаркуш, или судьба необразованного сына».

В статье данные процессы раскрываются на основе материалов прессы, анализируются цели джадидов в развитии театра, этапы становления и развития национального театра, основные проблемы, поднимаемые в сценических произведениях, трудности организации театральных постановок, а также деятельность татарских и азербайджанских театральных трупп в Туркестане.

Освещается процесс формирования любительских театральных коллективов и их деятельность. В частности, показано, что первая постановка пьесы «Ибратнома», осуществлённая силами любительской молодёжи, состоялась не в Ташкенте, а в Самарканде, затем в Коканде, а на последующих этапах – в Ташкенте, в здании Колизея. Ход театральных постановок раскрывается на основе материалов национальной прессы.

Также отражены взгляды Махмудходжи Бехбуди, который наряду с созданием сценических произведений подчёркивал необходимость формирования сценической культуры, разработки рекомендаций для актёров и подготовки зрителей через разъяснительную и образовательную деятельность.

В статье описываются дискуссии и препятствия, возникшие при написании и постановке сценических произведений: в первую очередь со стороны колониального правительства, а на последующих этапах – под влиянием религиозного невежества и фанатизма. В частности, перед исполнением пьесы её текст в обязательном порядке должен был быть представлен властям на русском языке, и только после официального разрешения допускалась организация театра. В то время среди зрителей в залах присутствовали тайные агенты. Бывали случаи, когда организаторов привлекали к ответственности, а иногда представления прерывались до их завершения. Публикации в прессе того времени свидетельствуют о том, что после спектаклей общество разделялось на «семьдесят течений» и полярные мнения. В качестве примера приводятся такие суждения, как: «Вы учите нас убивать, показывая, как это делается», или утверждения о том, что «театр противоречит шариату». В статье излагается, как в сложившейся ситуации национальная интеллигенция давала достойный отпор и необходимые разъяснения обществу.

Ключевые слова: *национальная пресса, национальный театр, кукольный театр, «Падаркуш, или судьба необразованного сына», бида'ат хасана, труппа «Турон», «Джамияти имдадия».*

Abstract. *This article is devoted to the analysis of articles on the national theatre published in the pages of the journal "Oyina", which was issued in Samarkand between 1913 and 1915 by Mahmudhoja Behbudi, the founder of the Turkestan Jadid national movement. The article also discusses the emergence of the Jadid national theatre.*

The modern form of the national theatre in Turkestan emerged on the basis of long-established traditions such as folk oral dramas, public street performances, and puppet theatre. It was also a result of the Jadids' educational background in madrasas and the experience they gained abroad. In this context, Mahmudhoja Behbudi's play "Padarkush, or the Fate of an Uneducated Boy" was staged and became one of the first manifestations of the modern national theatre. The article examines these processes on the basis of press publications and reports, analyzing the main objectives that the Jadids pursued through theatre, the stages of formation and development of the national theatre, the key issues reflected in the plays, and the problems encountered in organizing performances. It also investigates the activities of Tatar and Azerbaijani theatre troupes in Turkestan.

The article also reveals the formation and activities of amateur theatre groups. In particular, it is shown—based on information from the national press—that the first performance of Ibratnoma by amateur youth actors was staged not in Tashkent, as often assumed, but in Samarkand, later in Kokand, and in subsequent stages in Tashkent at the Coliseum building. The course and organization of these theatrical performances are examined through contemporary press reports. Furthermore, the article highlights Mahmudhoja Behbudi's views that, alongside writing stage plays, it was necessary to conduct educational work explaining stage culture, providing guidance for performers, and offering instructions for audiences.

The article discusses the challenges surrounding the writing and performance of stage works. Initially, these efforts faced resistance from the colonial government, and at later stages, debates arose due to prevailing religious ignorance and fanaticism. Specifically, it was required that a play be submitted in Russian to the authorities before its performance, and only after obtaining governmental approval could a theatre be organized. At that time, informants were even present among the audience. On some occasions, organizers were held accountable, and performances were sometimes interrupted before completion. After the performance, the public was divided into approximately seventy factions, holding various opinions, as reflected in contemporary press reports. For instance, some criticized the play with remarks such as, "Are you teaching us to kill people? Is this how you teach killing?" while others considered theatre to be "contrary to Sharia." The article notes that, in response to this situation, the nation's intellectuals provided society with the necessary guidance.

Keywords. *National press, national theater, puppet theater, "Padarkush or the case of an Uneducated Boy", bid'ati hasana, "Turon" troupe, "Jamiyat-i imdodiya".*

KIRISH

Turkiston tarixining 19-yuzyillik oxiri 20-yuzyillik boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy hayotini haqqoniy va to‘laqonli o‘rganishda ushbu davrda yaratilgan milliy matbuotning o‘rni beqiyosdir. Mustamlaka hukumatining kuchli ta’qiq va bosimiga qaramasdan millat ziyolilari milliy matbuotni yo‘lga qo‘ydilar. Oyinai jahonnoma hisoblangan matbuot sahifalarida jamiyatning barcha muhim masalalari o‘z aksini topdi. Xususan, o‘zbek xalqining ma’naviy madaniyatini ko‘rsatib beruvchi milliy teatrning tarixiy ildizlari, sahna asarlarining yaratilishi, taraqqiyot bosqichlari haqida ham ma’lumotlar talaygina. Turkistonda nashr etilgan ilk milliy jurnal hisoblanmish “Oyina”da teatr masalasi yetarlicha haftama-hafta yoritib borildi.

Ushbu davrda Turkistonga Rusiya shaharlaridan kelgan teatr jamoalari Toshkent va boshqa shaharlarning ruslar joylashgan qismida, Ozarbayjon va Tataristondan kelgan teatrlar esa, asosan, Eski shaharlar aholisi o‘rtasida spektakllar ko‘rsatib, o‘zlarining mahoratlarini namoyish etayotgan edilar.

Ruslar teatr tomoshabinlarga chuqur ta’sir qilishini bilgan holda, shuningdek, teatrdan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish maqsadida 1867-yilda Toshkentda “Havaskorlar drama to‘garagi” nomli ilk tashkilotni

qurishdi. Orqasidan 1876-yilda Samarqandda “Musiqali drama to‘garagi”, 1890-yilda “Havaskorlik jamiyati” va “Qo‘qonda dramatik san’at havaskorlari to‘garagi” faoliyat boshladi. Bu teatr jamoalari rus va Yevropa teatri na’munalarini sahnalashtirishar edilar.

O‘zbek tomoshabinlarining tatar teatri namunalari bilan tanishishlari, avvalo, Turkistonda yashovchi tatar havaskorlari spektakllari orqali bo‘ldi.

Shu asnoda Turkistonga 1911-yildan tatar va ozar teatrlari gastrolga kela boshlashdi. Tatar va Ozarbayjon xalqlarining tillari ham, milliy an’analari va urf-odatlari ham yaqin bo‘lgani uchun o‘zbek xalqining ilg‘or vakillari, jumladan, jadidlar shu teatrlarning spektakllarini zavq bilan tomosha qilishgan (Каримов, 2016).

Milliy teatrga targ‘ib qilishni ziyolilar aynan matbuot vositasi bilan bajardilar. Zamonaviy ko‘rinishdagi milliy teatr bilan xalqni tanishtirish, teatr haqidagi bilimlarni butun turkistonlilarga yetkazish maqsadida “Oyina” jurnali sahifalarida bu sohaga aloqador ma’lumotlar soni ko‘paydi.

Xususan, musulmon mamlakatlaridan tashrif buyurgan teatr guruhlarining hisoblari haqida “Oyina” jurnali sahifalarida ma’lumot berib turildi. Ushbular qatorida A. Kamolning “Dajjol” ismli asari Samarqandda tatar yoshlari tarafidan ochilgan “Musulmoniy-rusiy maktab” foydasiga 1914-yil 23-aprelda sahnada qo‘yilgani, unda jami madoxil 421 so‘m 95 tiyin, jami masorf 158 so‘m 75 tiyin, sof foyda – 263 so‘m 20 tiyin bo‘lgani, bu haqida matbuotga Shokir Sharinskiy xabar bergani(Oyina, 1914:862 – 863), shuningdek, 1914-yil 11-iyunda tatar yoshlari tarafidan “Tatar maktabi” foydasiga A. Kamolning “Baxtsiz yigit” ismli yana bir asari sahnada qo‘yilgani(Oyina, 1914:840), uning hisob-kitobiga qaranda jami madoxil 208 so‘m 80 tiyin, jami masorf 116 so‘m 35 tiyin, sof foyda, 92 so‘m 45 tiyin bo‘lgani, bu haqida mas’ul mudiri Mustafo Boyishf matbuotga xabari(Oyina, 1914:862 – 863) kabilarni ko‘rish mumkin.

Shuningdek, 1914-yil 4-iyulda Samarqandning rus qit’asida Bokudan kelgan artist Mir Akbarxon Tolishskiyning birinchi armani artistlari ishtiroki bilan “Ko‘hna Turkiya” fojiasi, “Doshim doshim” tamoshalari qo‘yilgan. Tanaffus vaqtida rus musiqasi bilan tatarlar va kavkazlarning milliy dastalari turli nag‘malar chalib turishgan. Teatr nihoyatda muvaffaqiyatli chiqqan. Xususan, “Ko‘hna Turkiya” asari tamoshachilarga anchagina ta’sir etgan(Oyina, 1914:913).

Turkistonda hali teatr sahnalashtirilmasidan avval Mahmudxo‘ja Behbudiy xorijda mavjud teatrlar soni haqida quyidagi ma’lumotni jurnalda beradi: “O‘rupada teatru juda ko‘p bo‘lgan mamlakat Fronsadur. Onda – 596 teatru bordur. Italiyada – 544, Ingiltarada – 372, Germaniyada – 346, Ispaniyada – 228, Ovstriyada – 215, Rusiyada – 149, Belgiyada – 94 teatrular bor. Kundan kun teatru o‘rnini sinomotug‘rof olub turubdur. Shul sababdan teatrularning soni mundan ortmoqg‘a ehtimol yo‘qdur. Berlinda 30 teatrga muqolib 400 sinomotug‘rof bor va oning eng taralgan yeri Italiya, Ispaniya va Fronsadur”(Oyina, 1913:234). Bu ma’lumotlarni berish orqali Mahmudxo‘ja Behbudiy insonlarga teatrning jahondagi ahamiyati qay darajada ekanligini ko‘rsatishni maqsad qilgan edi.

ASOSIY QISM

Turkistonda sodir bo‘layotgan ayni qizg‘in jarayonlarda o‘zbek milliy teatri qadimdan shakllanib kelayotgan xalq og‘zaki dramalari, maydon tomoshalari, qo‘g‘irchoq teatri an’analariga tayangan holda, jadidlarning madrasa ta’limi bilan birga xorijda oshirgan malakalarining mevasi o‘laroq 1911-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush yoxud O‘qumagan bolaning holi” nomli “3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojia” ni yozadi. Asarni chop qilish xususidagi urunishlar ikki yilgacha muvaffaqiyatsiz kechadi. Faqat pyesani 1812-yili rus-fransuz muhorabasining Borodino maydonidagi ruslar g‘alabasi bilan yakunlanishi 100 yilligiga bag‘ishlab, Tiflisdagi senzorga yuborilishi nashr uchun imkon beradi. “Matbuot ishlari Tiflis qo‘mitasi senzori ruxsati bilan Kavkaz o‘lkasi sahnalarida qo‘yish mumkin” degan 1913-yil 23-mart 19940-son qaroriga ko‘ra, asar 1913-yil Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi (Ризаев, 1997).

Qo‘g‘irchoq teatri 19-yuzyillikning o‘rtalariga kelib, realistik sahna asarlarining maydonga kelishiga zamin hozirladi. Masxaraboz va muqallidlar deb atalgan Bidiyorshum va Zokir eshonlarning aktyorlik truppalari esa o‘z asarlari bilan Xurshid va Cho‘lpon singari o‘zbek dramaturglari qalamiga mansub sahna asarlarining yaratilishida xamirturush vazifasini bajardi (Karimov, 2016).

Shunday qilib, 1914-yil 15-yanvar chorshanba kuni zamonaviy ko‘rinishdagi milliy teatr Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush yoxud O‘qimagan bolaning holi” asari sahna yuzini ko‘rdi. Xalqning ongiga erk va hurriyat g‘oyalarini payvand qilishda maktab va maorif, matbuot va badiiy adabiyot bilan birga teatrning roli ham katta edi. Shu asosda jadidlar zamonaviy ko‘rinishdagi milliy teatrdan quyidagilarni maqsad qilishgan edi:

– Xalqning muammo va kamchiliklarini ko‘rsatish orqali jamiyatni isloh qilish;

– Jamoatga xitob qilishning yana bir usuli sifatida jadid mafkurasi targ‘ibotini tarqatish va kuchaytirish;

– Teatr vositasi bilan yoshlarni siyosiy tomondan birlashtirish va yangi bir inqilobga tayyorlash.

Shu tariqa kuchli ijtimoiy ehtiyoj, qolaversa, xalqni ma’rifatli qilish, madaniyatni oshirishga qaratilgan ulug‘ maqsadlarni targ‘ib qiluvchi vosita sifatida milliy teatr maydonga chiqdi. Jadidlar mavjud muammolarni chuqur anglab, g‘oyalarni targ‘ib etish, millat madaniyatini yuksaltirish, ilm-u ma’rifatli qilishda teatr san’atining o‘rnini to‘g‘ri baholay oldi (Sangirov, 2019).

Yozma dramaturgiyaning ilk namunasi yaratilgan 1911-yildan to 1929-yilgacha bo‘lgan davr milliy dramaturgiyaning shakllanishi va taraqqiyoti davridir. Jadid dramaturgiyasini uch davrga ajratish lozim:

1. Tom ma’nodagi shakllanish davri bo‘lib, u 1911 – 1916-yillarni o‘z ichiga oladi;

2. 1917 – 1924-yillar oralig‘i taraqqiyot bosqichi bo‘lib, bu davrda daramaturgiya umuman o‘zbek adabiyotining yetakchi janri bo‘lib qoldi va uning eng sara namunalari maydonga keldi. Fitrat, Cho‘lpon, Hamza, G‘ulom Zafariy, Xurshid, A. Badriy, Hoji Muin, A. Avloniy, G‘ozi Yunus kabi dramaturglarning badiiy mumtoz, g‘oyaviy o‘tkir, janr e’tiboriga ko‘ra g‘oyat muvaffaqiyatli sahna asarlari shu davrda yaratildi va sahnalashtirildi. Bu davr o‘ta qizg‘in teatrchilik tajribalari bilan ham xarakterlanadigan haqiqiy yuksalish yillari bo‘lib, o‘zbek milliy teatri tarixiga kirishga haqli bo‘ldi;

3. 1925 – 1929 va ma’lum darajada undan keyingi yillar bo‘lib, bu davr fikriy tushkunlik, kommunistik mafkuraning dramaturgiyaga kirib kelishi, jadidchilik g‘oyalari tanazzuli bilan izohlanadi. Garchi nomlari zikr etilgan yetakchi dramaturglarning aksariyati bu davrda ham ijod etgan bo‘lsalar-da, ularning asarlarida jadidona qarashlar bilan bir qatorda milliy istiqboldan umidsizlik kayfiyati yoki mustamlaka tazyiqi ostida ularning maqsad va manfaatlarini ifoda etish, beixtiyor maqtash tamoyillari ustuvorlik qiladi (Ризаев, 1997).

Milliy teatr g‘oyasi 10-yillarning o‘rtalariga kelib, butun Turkiston shaharlaridagi ziyoli yoshlarning fikri-yodini qamrab oldi. Millatning najotini ma’rifatda ko‘rgan jadid taraqqiyparvarlari o‘z qarashlarining keng miqyos kasb etishida, xalq o‘rtasida ommalashib, ularning “basirat ko‘zlari” ochilishida teatrning benazir ahamiyatini tobora chuqurroq his etmoqda edilar.

Agar davriy tartibda oladigan bo‘lsak, Toshkent, Samarqand, Qo‘qondan so‘ng Kattaqo‘rg‘on, Buxoro, Andijon, Namangan shaharlarida truppalar tashkil topib, teatrchilik harakatining keyingi taraqqiyotiga zamin hozirlab borildi.

Ushbu davrda havaskorlik teatr guruhlari, ya’ni truppalarning ahamiyati katta bo‘lgan. Ilk truppa hisoblanmish “Turon”ni Abdulla Avloniy Toshkentda tashkil etadi. 1913-yildan boshlab havaskor tusida to‘plangan bu to‘da 1914-oxirida rasman “Turon to‘dasi” nomiga o‘tadi va tobora tashkiliy tus ola boradi.

Ziyolilardan Munavvar qori Abdurashidxonov ham “Turon” truppasining tashkilotchilaridan biridir. U do‘stlari Abdulla Avloniy, Ilhomjon Inog‘omov, Komilbek Norbekov, To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo), Muhammad Poshshaxo‘jayev, Ubaydulla Xo‘jayev, Toshpo‘lat Norbo‘tabekov va boshqalar bilan birga truppaning barcha ishlarida qatnashgan (Ризаев, 1997).

Birinchi o‘zbek milliy teatr truppasi Samarqandda emas, Toshkentda vujudga kelgani aytildi, biroq birinchi milliy asar asosidagi spektalni sahnalashtirib namoyish qilish sharafiga Samarqand teatr havaskorlari muvaffaq bo‘ldilar. Chunki Toshkent truppasi “Padarkush”ni samarqandliklardan qirq kun keyin rasman sahnada ko‘rsata oldi. Vaholanki, “Padarkush” ustidagi ish Toshkentda ham samarqandliklar bilan yonma-yon dekabr oylarida boshlangan. “Oyina” jurnalining 1913-yil 10-sonida Samarqandning o‘zbak va tatar yosh taraqqiyparvarlari bir bo‘lib o‘zbekcha “Padarkush” va tatarcha “Oldaduk ham oldanduk” asarlarini Samarqand qiroatxonai islomiyasi naf’iga 1914-yil 15-yanvar oqshomida Samarqandda qo‘ymoqchi ekanliklari aytiladi. Xo‘qand va Toshkentda ham “Padarkush” fojiasini sahnada qo‘ymoq uchun mashq qilmoqdaliklari yoziladi(Oyina, 1913:234).

“Turon” truppasidagi ilk ayol aktrisa Ma’suma Qoriyeva bo‘lgan. “Turon” truppasi muntazam ishlovchi, professional jamoa sifatida ijodiy o‘sish, yangiliklar izlashga harakat qildi. Xalqning madaniy-ma’rifiy saviyasini ko‘tarish yo‘lida yangi shakllar topishga urindi, dadil tashabbuslarga jur’at qila oladi.

MUHOKAMA

Jadid teatri repertuariga nazar tashlagan kishi har bir sahna asarida shu davrdagi xalq va jamiyat hayotining favqulodda muhim va dolzarb masalalariga urg‘u qaratilganligini ko‘rib hayratga tushadi. Teatrning turkistonliklarga ta’siri kuchli bo‘lganini “Oyina” jurnaliga yozilgan teatr haqidagi she’rlardan ham bilish mumkin (Milliy, 1914. 31).

Jadid milliy teatrida ko‘tarilgan asosiy masalalar quyidagilardir:

– Jadidchilik harakatining mohiyati;

– tenglik, adolat, erkinlik, birlik;

– diniy mutaassiblik, bid’at, shariatdagi hukmlarga amal qilmaslik yoki uni noto‘g‘ri talqin qilish;

– ta’lim tizimining holati va isloh qilish choralari;
– eski va yangi usul maktablarining farqi;
– madaniylashuv, zamonaviylashuvga targ‘ib;
– banklar faoliyati va ular bilan muomala qilish;
– matbuot ishlari;
– eskirgan an’ana va urf-odatlar;
– marosimlar, bayramlardagi isrofgarchilik;
– odat tusiga aylanib qolgan yomon illatlar;
– oila salomatligi masalasi, erta turmush, ayollar masalalari, ko‘pxotinlik.

Sahnada voqealar rivoji barobarida tanaffus payti millatparvarlik she’rlari o‘qilgan, milliy cholg‘u asboblarida kuylar chalingan.

Teatr muhokama maydonini yaratgan edi. Har bir sahnani tomoshabinga ko‘rsatadigan o‘rnagi bor edi. Teatr so‘ngida asardagi asl maqsad ko‘rinar edi. Tomoshabinlar o‘zaro muhokamaga tushishar edilar.

Teatr o‘yinchilari birinchi pardada boshqa qahramon, keyingi pardada boshqa qahramon rolini ijro etishgan. Ya’ni har bir qahramon uchun alohida taqlidchi bo‘lmagan. Ayol muqallidlar yo‘q bo‘lganidan ularning rollarini erkaklar ijro qilishga majbur bo‘lgan. 1914-yilga qadar bo‘lgan rollarda vaqti vaqti bilan armani qizlar sahnaga chiqqanlar.

Teatrda dramaning yonida komediya ham faol bo‘lgan boshqa bir unsur holiga kelgandi. Teatrda tenglik, adolat, xotin-qizlar muammolariga asta-sekin e’tibor qaratila boshlandi.

“Oyina” jurnalidan tashqari boshqa matbuot sahifalarida ham teatr haqidagi xabar, maqola, e’lonlarning bosilishi tez-tez bo‘lgan. Masalan, 1915 – 1920-yillar davomida teatr tog‘risida eng ko‘p miqdorda maqolalar, xabarlar, e’lonlar bosilgan. Bu milliy teatrni mustahkamlash uchun olib borilgan targ‘ibot ishlarining hosilasidir, deyish mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy muallifligidagi “Padarkush” fojiasining 1914-yil yanvar va fevralida Samarqand, Xo‘qand va Toshkent sahnalarida Munavvar qori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy rahbarligida ilk bor namoyish etilishi bilan Turkistonda teatr san’atiga tamal toshi qo‘yildi.

Yildan-yilga dramaturglar safi kengayib, sahna asarlarining son va salmog‘i oshib bordi. Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Badriy, Hoji Muin Shukrullo, Nusratulla Qudratulla; Toshkentda Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, G‘ulom Zafariy; Qo‘qonda Abdurauf Samadov – Shahidiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy; Andijonda – Abdulhamid Sulaymon – Cho‘lpon, Shamsiddin Sharafiddinov – Xurshid; Buxoroda Abdurauf Fitrat kabi qator musanniflar yetishgan va yetishib kelmoqda edi.

Ushbu davrda “Oyina” jurnali teatr xabarlariga alohida e’tiborini qaratdi. Joylardagi sahna ishlarining eng oddiy tafsilotlaridan tortib tashkiliy, ijodiy muammolarigacha uning sahifalarida yoritib borildi. “Oyina”chilar o‘zlariga hamqadam “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” kabi, teatr san’atining ham ma’rifat g‘oyasi, milliy ijtimoiy ong va istiqlol tuyg‘ulari shakllanishi va mustahkam qaror topishi uchun katta minbar ekanini, maktab, matbuot va turli jamiyatlar qatoridagi g‘oyat zarur maydon ekanini yaxshi anglab ish tutardilar (Ризаев, 1997). “Oyina” jurnali teatr namoyishlari haqida oldindan xabar bosar va bu bilan mushtariylarini madaniy tadbirlarda faolroq bo‘lishga chorlar edi. Bu esa, teatrga tahririyatning alohida e’tiboridan ham dalolat beradi.

Behbudiy “Padarkush”ni yozganini aytib, birgina fevral oyida Samarqand, Xo‘qand, Buxoro va Toshkand, Kattaqo‘rg‘on shaharlarida millat nafi uchun ko‘ngillilar sahnada qo‘yib, to‘rt-besh ming so‘mni to‘rt-besh kechada jamlab, maktablar foydasiga berganini, samarqandiy ko‘ngilli mushaxxislar g‘ayrat qilib, yana “Padarkush”ni Samarqandda 7-mayda sahnaga qo‘yib, hosilini maktablarga sarf uchun berganlarini aytadi (Behbudiy, 1914:550 – 553).

Ilk marta sahna asarining qo‘yilish jarayonini “Oyina” jurali quyidagicha yoritadi:

1914-yil 15-yanvar chorshanba kuni Samarqandda “Padarkush” fojiasi bilan “Oldaduk ham oldanduk” komediyasi Samarqand qiroatxonai islomiyasi foydasiga samarqandiy o‘zbak va tatar yoshlarining g‘ayrati bilan sahnada ibrat uchun qo‘yilishi belgilangan(Oyina, 1914:285).

Rejissor janob qori Muhammadrahim Tojiddiniy bo‘lgan. Baland darajalik Samarqand voliysidan muharrir ruxsat olgan. Tomosha biletlari Samarqand qiroatxonasida, “Oyina” idorasida, Sibirskiy bankida, Maskovskiy bankida, janob mulla Abulqosim tabib do‘konida, to‘n bozorida va tomosha kuni teatrda sotilgan.

“Oldaduk ham oldanduk” komediyasini Muhammadrahim, Abdulhamid, Iskandar, Ahmadjon ismli tatarlar ijro etganlar. Ba’zi o‘ynovchilarning nutqidan tomoshabinlar qoniqmagan. Bunga ular sahnada tez gapirishlari va asar ichida ruscha so‘zlardan ko‘p foydalanishlari sabab bo‘lgan. Kavkaz turklarining tili Turkiston sahnalarida tatarlar tilidan ko‘ra yaxshi tushunilgan hamda ular so‘zlarini dona-dona ifoda qilganlar(Oyina, 1914:262 – 263).

“Padarkush” nihoyatda yaxshi ijro etilgan. Juda ko‘p xalq tomoshaga kelgan, natijada bilet yetmagani va joy yo‘qligidan uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketgan.

Ibratxonaning bor o‘rni 320 nafarga kifoya qilar edi. Yana 50 qadar o‘rin hozirlangan bo‘lsa ham kifoya qilmagan. Biletlar tomoshadan bir ikki kun avval yoshlarning g‘ayrati bilan sotilib tamom bo‘lgan. Ba’zi kishilar biletlarini ikki bahoga foyida bilan boshqaga sotgan. Soat 7 dan minglab xalq ibratxonaga hujum qilgan, ammo, bilet yo‘q. 3 so‘m berib tikka turmoqqa ham rozi, yana yer yo‘q. Ushbu jihatdan ibratxona muboshiri hamshaharlardan uzr xohlab: “Aziz hamshaharilarni iltifotig‘a ma’zuran yaqin muddatg‘a “Padarkush” ni eski shaharda sahnada qo‘yulub bilet bahosi ham arzon qilinib maktablar foidasig‘a berilur” – degan(Oyina, 1914:227 – 231).

Ushbu maqolada fojiadagi eng katta rol – “boy” shaxsini Abdussalom Abdurahim o‘g‘li taqlid etgan. “Xayrulloh”ni Abbos, “domla”ni Mardonqul Shohmuhammad o‘g‘li nihoyat viqor ila taqlid etgan. “Va ammo bir ozgina sust erdiki, haqiqatda bu ham domlalik xosiyatidur”. “Boybacha”ni Yazdonqul Shohmuhammad o‘g‘li yaxshi taqlid etgan. “Ziyoli”ni Mirzo No‘mon mulla Fozil muftiy o‘g‘li taqlid etib, mahorat bilan so‘zlagan.

Boyning xamyoza (esnash) va uyqusi hamda harakatidan aholi ixtiyorsiz va fosilasiz kulgan. Domla va ziyolining nasihati va nutqi xaloyiqni ko‘ngliga ta’sir etgan. Hatto va’z va pandga yig‘laganlar bor bo‘lgan. Xulosa, birinchi parda ma’qul, yaxshi chiqqan. “Parda inar, muhtaram aholi shiddatlik olqish ila chapak urgan, xulosa, bu pardaning natijasi, kulgu va ibrat, hatto ma’naviy yig‘lamoq bo‘lgan”.

2-pardaga boybacha va bo‘zbolalar mayxonada, harakati safihonani u qadar taqlid etarlarki, har kim mayxonadan nafrat etar va ularning ahvoli razilonasiga ham kular ham tavba etar. Bu pardaning muqallidlari Yazdonqul va Rasmqul Muhammadsolih o‘g‘li, Mirhoshim Mirrahim o‘g‘li, Muhiddin Jo‘raboy o‘g‘lidurlarki, har biri mukammalan o‘z vazifasini joriy qilgan. Rus, yahudiy va musulmonlar tahsin etgan. Hatto, 20 yildan beri teatr ma’muriyatidagi odamlar ham e’tirof qilgan. Ushbu badbaxtlik manzarani parda yopgan. Aholidagi olqish ibratxonani gumburlatgan.

3-nchi parda ochilgan. Boy uyquda, farzandi noxalaf va qotil eshiklarni ochib kirishi, boyning uyg‘onib qotilga qarab yugurishi, qotil pichoq ila boy qorniga urishi, bechora boy tarbiyasiz farzandi sababi ila yerga yiqilishi, na’ra urib, jon uzib, xirillashi yoritilgan. “Oh, badbaxt, farzandi noxalaf. Ota boshiga yetdi. Hamsoyalar kirar, qotillar to‘pponcha otib g‘oyib bo‘lar. Boybo‘chani taqlid etgan Abdulloh Badriddin o‘g‘li o‘luk ustiga o‘zini otar. Sahnada faryod-u fig‘on!”.

Boyning qashshoq va benavo birodari kirgan, aqlidan shoshgan, ayol faryod-u fig‘onda, yana domla hozir bo‘lgan. Ayolga tasalli bergan. Manzarani parda yopgan, xalqda haddan ziyoda ta’sir, ba’zi kishilar fojiadan ko‘zlarini yumib olganlar. Boyning birodarini taqlid etgan janob Muhammadaminjon Niyoziy mahorati alohida e’tiborga loyiq bo‘lgan.

4-manzara ochilgan. Mayxo‘ralarning ikkisi sargarm o‘tirishardi. “Bir zamon qotillar kelur, boisi kulfati din va dunyo bo‘lgan bir xalta aqcha ismlik yuzi qaroni piri ma’siyatlari bo‘lgan “davlati zo‘r” oldiga otar, uda suyunar. Olam yondi, oning kabobi pishsun! Chilimlar, popiruslar kelur. Qo‘sha-qo‘sha pivalar, mayxonachi “Artun” – Armanining uchgani, sakragani shoyon tamoshodur”.

Boybacha doimo yig‘lagan. “Ammo, na foida. Atodan, anodan, vatandan oyrildilar. Umri Sibir ketar”. “Hayda marsh turmaga”. “Padarkush” fojiasining hosili shundan iborat bo‘lgan. Voqea bir emas to‘rt-besh oila va ro‘zg‘orni vayron bo‘lishini tasvir etgan. Tanaffus vaqtlarida mashhur samarqandiy Hoji Abdulaziz afandi ijroi xonish qilgan. Majlisdagilarga fojia yaxshi ta’sir berib, hatto ibratxonadan chiqmay turub yana qachon qilunur? deb so‘raydiganlar ko‘b bo‘lgan. Tomoshaning natijasida “Padarkush” risolasining tili bir oz adabiy va o‘zi qisqaroq ekanligi ma’lum bo‘lgan. Pristuf taqlidini tatarlardan Ahmadjon janoblari qilib, muvaffaqiyat bilan o‘tkazgan. 5-parda ochilgan, bir tatar magazinining manzarasi(Oyina, 1914:227 – 231).

Samarqanddan keyin Xo‘qandda 1914-yil 24-fevralda Samarqanddan g‘ayratlik ko‘ngillilar kelib “Padarkush”ni sahnada qo‘ygan. Bu haqida “Oyina” jurnaliga ushbu teatrga qatnashgan tomoshabin xabar yozadi (Tamosho qilg’uvchi, 1914. 21). Unda tomoshabin sahnadagi rol ijrochilarini tanqid qiladi. Chunonchi, fojianing birinchi pardasida boy bilan domla o‘z rollarini yaxshi chiqargani, lekin ziyolining boyga qarata aytadigan so‘zlarini sahnaga teskari holda shuningdek, ziyolilarga munosib bo‘lmagan tovushda so‘zlaganini, boybachaning eshikdan kirib xalqqa orqasi bilan turgani kelishsiz bo‘lganini aytadi. Boybachaning 2-pardada bir oz kulib turgani yaxshi bo‘lmagani, 3-pardadagi fojia qatl ishi yaxshi chiqmagani, qotil bilan boybachaning harakati noqis chiqqanini, voqeada birinchi martaba o‘ynovchi afandilarni tanqid qilish o‘rinsiz bo‘lsa-da, ularning harakatlaridagi kelishmagan hollarni ko‘rsatmoqni o‘rinli ekanini bayon qiladi.

Ushbu tomosha “Xo‘qand musulmon maktablari” foydasiga qo‘yilgan. Bilet 1298 so‘m 50 tiyinga sotilgan. Pro‘g‘rom 33 so‘mga sotilgan. Jami 1331 so‘m 50 tiyin bo‘lgan. Masorf: “Padarkush”ning o‘ynalmoqqa muharrirdan ijozat masorfi 25 so‘m. Samarqanddan kelgan 10 kishi ko‘ngillilarning borish-kelish xarajatlari 305 so‘m 50 tiyin. Teatrning ijarasiga 201 so‘m, marka

olindi 58 so‘m, har-xil xarajatlar 50 so‘m, matbaaga berildi 23 so‘m, gubernatordan ijozat uchun Iskubluf masorfi 14 so‘m 60 tiyin. Sartaroshga 12 so‘m, musiqiy 15 so‘m, sahna islohi uchun 5 so‘m. Chiroq 10 so‘m. E’lonnoma yopishtirganga 8 so‘m. Jami 727 so‘m 10 tiyin. Maktablar foydasiga 604 so‘m 40 tiyin qolgan (Mansuriy, 1914. 21).

Bilet sotishlari uchun janobon: Mirzohid Mirobid o‘g‘li, Fo‘lodboybacha Zokirboy o‘g‘li, Said og‘o afandi, Hodixo‘ja Yaqubxo‘ja o‘g‘li, Sharifjon hoji Solih o‘g‘li sotib olgan. Sayfiddin o‘g‘li, mulla Ashurali Zohir o‘g‘li, mulla Mahmudjon, qori-u muallim mulla Hakimjon Mirzo Ali o‘g‘li, Mirsalim qori Hakim o‘g‘lilariga arzi tashakkur qilingan. Ushbu hisob xabarini teatr oqshomining mas’ul mudiri: Akobir Mansuriy jurnalga yozadi.

Toshkentda birinchi milliy teatr 1914-yil 27-fevralda “Musulmon jamiyati imdodiyasi” ning foydasi uchun “Kolizey” teatri binosida “Padarkush” fojiasi bilan “Xo‘r, xo‘r” bir pardalik kulgu hangomasi sahnaga qo‘yilgan. “Turon” truppasining rasmiy ochilish munosabati bilan so‘zlangan nutqda Munavvar qori Abdurashidxonov teatrlarga faqat o‘yin va masxarabozlik ko‘zi bilan boqmasdan, millat va axloq jihatidan eng ibratli bir manzara va ulug‘lar uchun ochilgan foydali bir maktab nazari bilan boqmoqlarini ojizona arz qiladi (Toshkentda o’lka tilidagi birinchi spektakl, 1914. 18). Tamoshachilar u janobni olqishlagan.

Toshkentda bo‘lgan ushbu tomoshada boyning rolini Avloniy, domlaning rolini olgan Ziyoboyf, ziyoli rolini olgan Asomiddin Xo‘jayuf, Xayrullohning rolini olgan Xoniy janoblari sahnada yaxshi rol ijro etganlar. Ikkinchi parda mayxona manzarasi. 2-pardada davlat zo‘rining rolini olgan Xoniy, Norafiy rolini olgan Poshoxo‘jayf, Tangriqulning rolini olgan Shohinoyato‘f, boybachani rolini olgan Badriddin A’lamo‘f janoblari bo‘lgan. Bularning har biri o‘z vazifasini o‘rniga keltirgan.

Maqola muallifi teatrni bayon qilar ekan, ichib o‘tirgan holda Shohinoyatf janoblarining xalqlarga boshini burib “chuvalashmasdan o‘turunglar” degani yaxshi bo‘lmaganini aytadi. Bunga sabab sifatida sahnadagi ijrochilarga ta’yin qilingan vazifalaridan boshqa hech bir so‘z aytmoq kerak emasligini ta’kidlaydi. Uchinchi pardada Toshmurod va Tangriqul boyning uyiga kirishlarida ishni yaxshi o‘rniga keltirgan. Boy xotinining rolini olgan A. Ziyoboyfni harakati yaxshi chiqqan. Domla rolini olgan Husayniy janoblari va’zni yaxshi so‘ylamagan, bunga sabab uning ovozi pastroqligi edi. Pristuf rolini olgan Mirzoxonf ham o‘z vazifasini yaxshi ado qilgan. Ziyoli ila Toshmurod shaxsiyatini ijro qilganlarga sayrchilardan soat va boshqa nimarsalar hadiyaga berilgan. Xulosa, jamiyatda ushbu milliy teatr yaxshi ta’sir qoldirgan. Padarkushlik fojiasi ilm va tarbiyasizlikning natijasini ko‘rsatar ekan, deb xaloyiq xulosa bildirgan. Padarkushdan so‘ngra “Xo‘r, xo‘r” kulgu hangomasi qo‘yilgan. Ushbu hangomada 3 kishi qatnashadi. Birinchi kapitan rolini olgan A. Askaruf, Maryam rolini olgan B. Glazorxonim. Saldatlik rolini olgan M. Shohbolf janoblarini sahnada so‘zlagan so‘zlari xalqqa ta’sirli bo‘lgan. Saldat har so‘zni aytganida xalq kular edi, saldat bechora ham yaxshilib xo‘rullar, alhosil bu xo‘r, xo‘r, kulku tomoshabinni yaxshi kuldirgan. Bundan so‘ngra Abdulloh Avloniy janoblarining Turkiston faryodi va to‘y xususidagi hajvini ko‘ngillilar sahnaga chiqib barobar ovoz ila o‘qishgan. Bu she’rlarni navbat bilan xalq eshitar edi. So‘ngra Ahmadjon To‘raxofiz ham chiqib millatning ahvoli hozirasidan bir oz o‘qib bergan. Alhosil, birinchi martaba sahnaga chiqqan yoshlar o‘z rollarini yaxshi chiqarganlar. Toshkendning eng katta teatrida bo‘lsa ham joyning yo‘qligidan ko‘p kishi qaytib ketgan (Tuzaljonboyf, 1914. 22).

Teatr biletining bahosi haqida tomoshabinlardan biri o‘z suhbatida teatrga kechroq borgani sababidan arzon bilet topaolmay, biletni ikki yarim so‘mga xarid qilganini aytadi (Avloniy, 1914. 2).

Teatr o‘yinchilari 15 kishi atrofida bo‘lgan. O‘sha kungi tomoshadan bir yarim ming so‘m sof foyda qolgan. Bu davrda oddiy aholi bir yil davomida o‘rtacha 100 so‘m atrofida pul ishlab topgan. Teatrdan kelgan pul “Jamiyati xayriya” foydasiga topshirilgan. Bu paytda ushbu jamiyat tashkil etilganiga 5 yil bo‘lgan edi. Teatr o‘yinchilari o‘zlari bir so‘m pul olmay, hammasini jamiyatga berganlar. Avvalgi Tomosha bog‘idagi bo‘lgan teatrni ham, ramazonda mozorda bo‘lgan Sharq kechasidan kelgan aqchalarni ham jamiyatga bergan edilar.

Jamiyat bu aqchalarni o‘zlari tarafidan ochilgan kambag‘alxonalarga, beva-bechoralarga, maktab va madrasalarga, muhtoj o‘quvchilarga yordam qilgan. Jamiyat raisi Boqixonboy Dodaxonboy o‘g‘illari. Muovin: Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li. Xazinador: Ilhomjon In’omjon o‘g‘li, muovini Husanxo‘ja Dodaxo‘ja o‘g‘li. Sarkotib: Bashirilloxon Asadullaxo‘ja o‘g‘li. Muovin: Abdusami’ qori Hidoyatboy o‘g‘li. Idora a’zolari: Abduvali hoji Abdulmalikboy o‘g‘li, Tojimuhammad Isomuhammad o‘g‘li, Nizomiddin qori Mullo Husayn o‘g‘li, Ubaydullaxon Asadullaxo‘ja o‘g‘li, Karimqori Ko‘chakboy o‘g‘li va mullo Abdulloh Avloniylardir. Taftish a’zolari: Koshifxon eshon, Orifxo‘ja qozi va Toshhoji Tuyoqboy o‘g‘li bo‘lgan.

Teatrga mullalar, boylar bilan birga hukumat “quloqlari” ham borgan. Teatrda yolg‘iz sahna asarini ijro etish bilan cheklanmasdan, balki xalq orasida ota-bobodan an’ana bo‘lib qolib ketgan isroflik to‘ylar, shuningdek, banklardan to‘g‘ri foydalana olmaganlar haqida hajviy chiqishlar ham ko‘rsatilgan. Eng ahamiyatlisi, millat va uning holi haqida kishiga ta’sir o‘tkazuvchi she’rlar ham o‘qilgan.

Kattaqo‘rg‘onda musulmon maktabi foydasiga 2 – 3-martda “Padarkush” fojiasi sahnada qo‘yilgan. Teatr nihoyatda torlik sababli ikki kecha uchun ruxsat olgan. Birinchi kechada teatrda odam ko‘b kelgan, ammo ikkinchi kechada yomg‘ir bo‘lganidan odamlar nihoyatda oz kelgan. Sahnada o‘z til va shevada va o‘z milliy maishatdan ko‘rsatilgan, ushbu fojiadan xalq mutaassir va mamnun bo‘lib qaytganlar va o‘ruslar ham tahsin etgan. Mushaxxislar, o‘zbak va tatardan murakkab edi. Avvalgi oqshomda boy rolini samarqandli Abdussalom afandi, ikkinchi oqshomda muallim Hoji Muin tashaxxus etgan. Madoxil: 266 so‘m 55 tiyin. Masorf: 121 so‘m 22 tiyin. Sof foyda: 145 so‘m 33 tiyin bo‘lgan. Yaqin vaqtlarda Kattaqo‘rg‘on yoshlari “qiroatxona” ochmoq uchun harakat qilib hukumatdan rasmiy ruxsat olgandan so‘ngra yana “Padarkush” fojiasini “qiroatxona” foydasig‘a qo‘ymoqchi bo‘lganlar. O‘zbak shevasi va milliy xalq harakatlarini tatar havaskorlari yaxshi chiqara olmaganlar. Ko‘ngillilar orasidagi tafovut ko‘b bo‘lgan. Ammo, tatar yoshlari “Erim qoytdi” asarini o‘zlaricha yaxshi o‘ynaganlar (Muxbir, 1914. 23).

1914-yil 5-martda Buxoroning “Torikiston” sinemoto‘g‘rofida “Padarkush” fojiasi sahnada qo‘yilgan, mushaxxislar tatar birodarlardan edi. Teatr kunduz soat 5 da boshlangan. Imorat to‘la, kirarga joy yo‘q. Bir necha yuz kishi ko‘chada qolgan. Bunda ham ko‘ngilli tatarlar, milliy shevadagi asarlarni yaxshilab tashxis qilolmaganlar. Bo vujud shu bir nav ta’siri bor edi. Ushbu sahna asarini tomoshabin samarqandlilar Samarqandda qo‘yganini, uning ta’siri bashqacha bo‘lganini aytadi. Tomoshabin so‘zini xulosa qilar ekan: “Tatar mushaxxislari nihoyat tez so‘yladilar. Muni buxorilar va yo samarqandilar o‘zi qo‘ysalar yaxshi bo‘lur edi. Buxoroda birinchi milliy teatrni tatarlar sahnada qo‘yganlari uchun alarg‘a tashakkur qilmoqg‘a qarzdormiz” – deydi (Tomoshabin, 1914. 22).

Samarqandda yana “Padarkush” fojiasi 1914-yil 7-mayda sahnaga qo‘yilgan. Avvalgi safargi aktyorlar rolni yaxshi taqlid etib aholining tahsiniga sazovor bo‘lganlar. Biletlar avvalgisidan ko‘ra kamroq sotilgan. Jami madoxil 384 so‘m 50 tiyin, masorfi 184 so‘m 50 tiyin, qolgan 200 so‘m quyidagi Samarqand maktablariga taqsim qilingan(Behbudiy, 1914:595).

Jomboyda bozor amini O‘runxo‘ja janoblari ta’sis etgan maktab va muallim mulla Komil idorasidagi maktabga 35 so‘m. Bog‘shamol maktabiga 15 so‘m. Buxoriy qishloqda janob mulla Jo‘raboy ta’sis etgan maktabga 15 so‘m. Podshohlik go‘rudiskiy uchilishcha maktabidagi musulmon shogirdlarining ehtiyojiga sarf etmoq uchun maktab mufattishig‘a 25 so‘m berilgan. Janob muallim mulla Abdulqodir maktabiga muqarrar qilingan 35 so‘mni muallim janoblari olmagan.

Ushbu maktub so‘ngida shunday deyiladi: “Bilet olib qadam ranja etkanlarg‘a va maktablar ruvoji uchun yuzlarig‘a (jun) yopushturub muqallidlik qilgonlarg‘a, tashakkur o‘lunur. Birinchi va 2 nchi teatrlarning mufassal hisobini ko‘raturganlarni lutfan “Oyina” idorasig‘a kelib, daftarni ko‘rmoqlari marjudur. Ma’ al ehtirom mudiri mas’ul M. Behbudiy. Rejissor mullo Orif Abdurrahimzoda” (Behbudiy, 1914:595). Bundan ko‘rinadiki, ushbu davrda aktyorlar faoliyati yetarli darajada ulug‘langan.

1914-yil 6-iyunda Andijonda maktab foydasiga andijonlik yosh ko‘ngillilar tarafidan “Padarkush” fojiasi “Lyuks” teatrida o‘ynalgan. Muhtaram yoshlarning har qaysilari o‘z rollarini yaxshi ifo etgan. Shuning uchun ushbu milliy teatr xalqqa xiyla ta’sir etgan. “Padarkush” fojiasi ilmsiz va tarbiyasizlikning yomon natijasini aynan ko‘rsatar ekan, deb xaloyiq orasida gap-so‘zlar yurgan. Ushbu milliy ishga chin ko‘ngil bilan harakat etgan zotlar: Eshonxon Mahzum, mulla Ergash Hoji, Aliasg‘ar Askaruf va Ziyouddin afandilar bo‘lgan. “Idora” teatrning xulosai hisobiysi bilan qaysi maktab foydasiga ekani xususda muhtaram Abu Tolib Yo‘ldoshiy afandidan ma’lumot kelar deb kutadi, lekin kelmaydi. Bu haqida “Sadoyi Turkiston” jaridasig‘a yozilganiga ko‘ra, “ushbu teatrudan 1500 so‘mg‘a yaqin sof foida qolub, mundan 20 prosenti Andijonda solinmakda bo‘lgon qizlar gimnaziyosiga berilub, qolgani bir xayr ishg‘a sarf qilinmak uchun bir kishi nomidan bankda saqlanur emish”(Oyina, 1914:888 – 889).

1914-yil 7-iyulda Namanganda “Padarkush” fojiasi tomoshaga qo‘yilgan. Tamoshochilar ko‘b bo‘lib, teatr nihoyatda muvaffaqiyatli chiqqan(Oyina, 1914:962 – 963).

“Oyina” jurnalida teatr e’lonlari ham berib borilgan, masalan, Samarqandda 1914-yil 11-avgust dushanba kuni bo‘ladigan teatr e’lonida podshohlik chorbog‘idagi teatrxonada, musulmon maktabi hamda urushdagi majruh askarlar naf’iga musulmon artistlari tarafidan quyidagi asarlar tomoshaga qo‘yilishi aytiladi: 1) “Duoxonlar qurboni” (fojia); 2) “Qizlar shundoy qiziq aytalar” (mazhaka); 3) “Adabiyot kechasida janjal” (mazhaka). “Oqchalarini xayrli o‘runlarg‘a sarf qilmoqni xohlaguvchi musulmon qarindoshlarimizning

diqqatlarini jalb etarmiz. Ma’ al ehtirom musulmon ortistlari hay’ati ismidan: muallim Z. Muzaffariy” – deyiladi e’lon so‘ngida(Oyina, 1914:992).

Ushbu xabardan ko‘rinadiki, teatrlardan tushgan pullar faqat maktab va madrasalar foydasigagina emas, balki urush nogironlari uchun ham sarflangan.

“Oyina” jurnalida Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqandda 1914-yil 7-dekabrda Nusratulloh Mulla ibn Qudratulloh janoblarining asari bo‘lgan “To‘y” sahnaga qo‘yilganini yoritadi. Sahna ochilib, avvalan musiqiy duoi imperatorni chalib, so‘ngra turkiy tilda imperator va xonadon hamda vatan uchun sahnada duo o‘qilgan. Salondagilar tamoman duo vaqtida tikka turib, baland ovoz bilan “aamiin” deyishgan. Birinchi parda to‘yning mashvarati. Ko‘pkari, bazm, may, qand, to‘ndan so‘zlanadi. Ikkinchi parda to‘y majlisi bo‘lib, ammo qisqa, ham ruhlik chiqmagan. Uchinchi parda bo‘z bolalarni bazm, may va javon majlisi bo‘lib, maishatda qadimdan beri o‘rnashib kelgan qabih va manfur odatlarni ko‘rsatardi. “To‘rtinchi pardada to‘ychi boyning singani va bonkaga pul berolmay sudebniy pristuf kelib, mollarini xijz-arestga olgani va boyning obro‘si to‘kilgani tasvir etilardiki, bu muassir chiqqan, deyiladi. Asl “To‘y” asaridan ba’zi ishlari tashlanib va ba’zan xorijdan orttirilgan. Xulosa, munozara durust chiqqan. Ko‘ngilli janoblardan M. Shomuhammadzoda, M. Niyoziy, R. Solihzoda, A. Niyoziylar o‘z vazifalarini yaxshi ado etganlar. M. Q. Niyoziylar ham durust edilar. Domlaning vazifasi domladek sust edi. N. Foziliy, A. Karimzoda, T. Solihzoda, H. Shukrullo, A. Badriddin, M. Shohzodalarning vazifalarida kamchilik bo‘lmagan. Oqsoqol, chog‘andoz, bobolik etkanlar o‘sha odamlarning o‘zidek edi. Ziyoli o‘z vazifasini yaxshi ado etib, haqiqiy sahnaga muvofiq so‘zlar edi. Teatrning ilgari saflari bo‘sh edi. Papiruskashni ko‘pligidanmi yoinki zukkom – tumovdanmi salonda doimo “qhu-phu”, “o‘hu” … sadolari ziyoda bo‘lgan. Uning ustiga teatr salonida ohista yurib o‘rganmagan tomoshabin va yordamchilarning taqir-tuquri ko‘p shovqinli bo‘lgan (Behbudiy, 1914:135 – 136).

Salon ichida papirus otishlari-da ko‘ringan. “To‘y”ning oxirgi pardasini ba’zi odamlar tamom etmasdan chiqib ketganlar. Ba’zi tomoshabin bo‘z bolalar: “Bizni masxara qildi”, deb to‘rtinchi pardada o‘tirmay ketganlar. Behbudiy o‘z maqolasida teatr odobi haqida mushaxxislar, muharrirlar va yoki tomoshabinlar bo‘lsin bilmaganlarga ta’lim berishlari kerakligi haqida xulosa beradi.

“To‘y” oxirida yana barcha oyoqda turib, sahnada podshoh va vatan hifzini Allohdan tilangan. “Omin” deb xalq tarqalgan. Teatrdan mablag‘ 245 so‘m hosil bo‘lib, uning to‘rtdan biri majruh askarlar foydasiga va baqiyasi ba’zi usuli jadida maktablariga berilgan.

Jurnalga Said Boboxon To‘rayuf janoblari yozadiki, “Salibi ahmar” ya’ni majruhlar naf’i uchun 1915-yil 4-yanvarda “Padarkush” fojiasi Xo‘jandda sahnada qo‘yilib, mushaxxislar tatarlar va o‘zbaklardan murakkab bo‘lgan. O‘rinlar butun to‘lib, joy ozlik qilgan. Janob syezd qozilari ham tashrif qilganlar. Tamoshogaron, tarbiyasiz va o‘qimagan bola sababi bilan paydo bo‘lgan jinoyat va xonavayronlikdan ko‘b asarlanganlar. Majlis odobiga xalqning bir oz no oshnoligi uchun yo‘tali va oyoq taqir-tuquri notinchlikka sabab bo‘lgan. Teatrga 171 so‘m masorf bo‘lib, 590 so‘m sof foyda qolib, “Salibi ahmar” jamiyatiga topshirilgan(Oyina, 1915:206).

TAHLIL

1917-yil fevral inqilobigacha yozilgan o‘zbekcha sahna asarlari tahlil qilinganida ularning ko‘p qismini fojia tashkil qilgan. Yangi o‘zbek teatrining boshlang‘ich davrida fojiaga bu kabi ko‘p o‘rin berilishi tasodif emas, albatta. Zotan o‘sha davrning sharoiti shuni taqozo qilar edi.

Tomoshani tashkil qilishdagi muammolar quyidagilar bo‘lgan:

– Ta’qiq (senzura);
– Diniy jaholat va mutaassiblik;
– Tomoshaga rol ijro etuvchilar yetishmasligi;
– Libos va pardoz muammosi;
– Tomoshalarda yig‘ma dekoratsiyalardan foydalanish.

Sahna san’atining bir necha ming aholi soniga to‘g‘ri keladigan qator teatr-ibratxonalari vujudga kelishida eng katta to‘siqning biri mustamlaka istibdodi bo‘lsa, ikkinchisi diniy jaholat va mutaassiblik edi. Rus ma’murlari Turkistondagi teatrchilik harakatiga, milliy dramaturgiya taraqqiyoti va targ‘ibotiga ham tashkiliy-ma’naviy, ham moddiy to‘sqinlik qilishga urindilar. “Padarkush” pyesasi yozilganidan so‘ng ikki yilgacha nashrga ruxsat berilmagani va Turkiston general-gubernatorligining o‘z senzoriga murojaat etilgani bunga yaqqol namuna. Behbudiy rus-fransuz muhorabasining yuz yilligiga maxsus bag‘ishlov so‘zlarini qo‘lyozmaning ilk sahifasiga qayd qilishi rasmiy idoralarga ta’sir ko‘rsatish uchun qo‘llagan chora – “xiyla” ekani sir emas. Chunki u asarni to‘laligicha rus tiliga o‘girib, so‘ngra senzorga yubormog‘i shart edi. Nafaqat “Padarkush”, ayni chog‘da har bir yangi milliy pyesani rasmiy hukumat tasdiqidan o‘tkazish uchun rus tiliga o‘girish majburiy edi (Ризаев, 1997).

Pyesalarni sahnalashtirishdagi murakkabliklardan yana biri shunda ediki, senzura ruxsatidan o‘tgan

asar, qayta namoyish etilganda yoki boshqa shahar truppalarida sahnalashtirilganda, yana takroran mahalliy hokimiyatdan ruxsat olish zarur hisoblangan. “Padarkush”ni sahnalashtirish maqsadida turli shaharlardan yuborilgan qaysi bir xabarni ko‘rmang, albatta, “hukumatdan ruxsat olub” yoki “baland darajalik Farg‘ona voliysidan ruxsat olub” degan jumlalar uchraydi. Yoki har bir milliy spektakl afishasi “Hokimlarning ruxsati bilan” degan yozuvdan boshlanadi. Hatto fransuz hayotidan olib yozilgan “Qotil Karima” melodramasining “Turon” truppasi spektakli afishasidagi birinchi jumla “Hokimlarning ijozati ila” degan so‘zlar bilan boshlanadi (Ризаев, 1997).

Mustamlaka ma’murlari pyesalar nashri, spektakllar yoki “Sharq kechalari” ga ruxsat berar ekan, albatta, ularning mazmuni, maromnomasi va ijro etiladigan nomerlar dasturi bilan jiddiy qiziqqan. Kerak hisoblanganda qisqartirilgan yoki ta’qiqlangan. Konsert nomerlaridan she’riy matnlarga esa maxsus e’tibor berilgan. Ana shu sharoitda ziyolilar turli aylanma yo‘llar topishga majbur bo‘lganlar. Xususan, pyesalarni tarjima qilganda, ayrim ijtimoiy keskin o‘rinlarni boshqacharoq – yumshatib, ba’zi she’rlarni esa almashtirib ruschaga o‘girganlar. Ba’zan bu “hiylalar” ma’lum bo‘lib qolib, ma’muriy va moddiy jazolanish, spektakllarni namoyish o‘rtasida to‘xtatib qo‘yish kabi voqealar ham yuz bergan.

Mustamlakachilar ma’naviy tazyiqlarning o‘zi bilan cheklanmaganlar. Ayni paytda ular moddiy jihatdan ham milliy teatrchilik ishlariga ziyon yetkazganlar. Ayrim pyesalar nashri va spektakl ijrosi uchun ruxsat berilmasa, ma’murlarga “rushvat” ya’ni pora berishga majbur bo‘lingan. Bundan ham ziyolirog‘i, hukumat har bir tomoshadan tushgan mablag‘ni talab qilgan. Hukumat ruxsati uchun mablag‘lar to‘langan.

Mustamlaka ma’muriyati milliy madaniyatning jonlanishi uchun tazyiq va ta’qiqning turli shakllaridan keng foydalangan. Buning yana bir misoli, o‘zaro milliy adovatga yo‘l ochib berish, diniy mutaassiblikning avj olib, ayrim “ulamolar” tomonidan jadid ziyolilarining aksariyat harakatlari, jumladan, dramaturgiya va teatrchilik ishlarining ham turli ta’qiblarga uchrashini loqayd kuzatish va balki ruhlantirishdan iborat edi.

1914-yil 27-fevral kuni Toshkentda “Jamiyati imdodiya” foydasiga o‘ynalgan milliy teatrni tashkil etishda bir qator muammolar vujudga kelgan, eng birinchi navbatda teatr xususida Toshkent odamlari yetmish firqaga bo‘lingan. Ba’zilari: “Teatr harom, teatrdan kelgan oqcha ham harom” – deganlar. Bunga javoban: “Holbuki, teatr harom ermas, bid’at. Bid’at bo‘lsa ham “bid’ati hasana”. Bid’ati sayyia” lardan emas. Teatr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo‘q qilmak uchun, o‘zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg‘on oyinasidir” – deyishgan (Avloniy, 1914. 2).

Teatr odamlarning kamchiliklarini va turmushning qanday darajada ekanligini oyina kabi insonlarning ko‘ziga ko‘rsatib bergan (Tavallo, 1914. 27). Teatr haqida ba’zi odamlar: “teatr ko‘rguzamiz deb, bizlarga ota o‘ldursangizlar mundoqcha o‘ldurasiz deb bizning bolalarimizga ota o‘ldurmoq ta’limin ko‘rsatdilar” – degan xulosaga keladilar.

Xalqda yuz berayotgan ushbu munosabatlardan keyin Mahmudxo‘ja Behbudiy teatr masalasiga e’tibor qaratishga, uni hayotga tatbiq etishga, bu sohada faoliyat ko‘rsatishga ularni undaydi. Behbudiy ommaga teatrning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va roli haqida o‘z fikr va qarashlarini bayon qilib, “Oyina” jurnalining 1914-yil 10-may 29-sonida “Teatr nadur?” maqolasini bosadi.

Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy: “teatr ibratnamodur. Teatr va’zxonadur. Teatr ta’ziri adabiyadur. Teatr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko‘zliklar ko‘rub, kar va quloqsizlar eshitib asarlanur. Xulosa, teatr va’z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomulni qabh va zararini aynan ko‘rsatguvchidur. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidur” – deydi (Behbudiy, 1914:550 – 553).

Behbudiy taraqqiyning eng birinchi sabablaridan birini teatr deb hisoblaydi. Umumiy odatlarning foyda va zararidan paydo bo‘ladigan natijalarni teatrxona aynan ko‘rsatishini, buning natijasida har kim bundan ta’sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda qilmoqlariga sabab bo‘lishini aytadi. Har zamonning bir usul va hisobi borligi, bu zamonda teatrxonalar yomon va zararli odatlarni hisob va tanqid qilib, yomonligini xaloyiqqa ko‘rsatib, va’z va nasihat etguvchi bir joy ekanligini ta’kidlaydi. Teatrxona sahnalarida qo‘yiladigan asarlar – fojia, ya’ni qayg‘uli, mazhaka, ya’ni kulgu, hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqqa ko‘rsatilishi, u voqeadagi yomonlik va yaxshilikning paydo bo‘lgani va sababini har kim ko‘rib, anglab, ibrat oladi va yomonlikdan qochib, yaxshilikka harakat qilmoqqa teatrda ko‘rsatilgan voqealar sabab bo‘lishini aytadi (Behbudiy, 1914:550 – 553).

“Sadoyi Farg‘ona”ning 1914-yil 83-sonida “Shariati islomiya” unvoni ostida samarqandiy mudarris Vasliy janoblari teatr haqida: “Har nav’ lu’biyot, o‘yun shar’an munkir va haromdur. Agar oralarinda nag‘ma va nag‘machilar bo‘lsa yoinki qimor va xotunlardek nimarsalar qo‘shulsa, harom ustiga harom bo‘lur. Ammo havoparastlarni ba’zisi ba’zi o‘yunlarni maktabi adab ot qo‘yub, “teatrni murod etarlar”, rivoj berarlar. Yana arbobi she’riyati islomiya bo‘lub turub va o‘zlarini

millatparvar ko‘rsatub, “Padarkush” muharriri Mahmudxo‘jani murod etarlar. Bu nav’ ish qilganlarig‘a hayrat qilinur…” – deydi.

Bunga javoban “Idora” nomidan “Oyina” jurnalida “Teatru, musiqiy, she’r” nomli maqola bosiladi. Ushbu maqolada Vasliy janoblarining bilmasdan fikr yuritgani bildirilib, “har nav lu’biyot harom”, derlar. Har nav’ o‘yun va lu’biyot harom emas, balki ba’zi qismi harom, ba’zisi hatto shar’an lozim va savobdur. O‘q otmoq, suvga yuzmoq, ot chopmoq va yo shularg‘a o‘xshash nofe’ va admon va mashqlar va ibratomuz nimarsalar kabi. Hadisi sharif: O‘q otmoq ila mashg‘ul bo‘lingizki, lahvning xayrligidur…. Mundan ma’lum bo‘lurki, ba’zi naf’lik lahv va lu’b harom emas, balki lozimdur. Kelayluk nag‘maga. Vasliy janoblari, albatta, nag‘madan musiqiy va cholg‘uni va ani zimnidagi she’r va g‘ino “ashula”ni murod etib, harom derlar. Munga javoban: “Sahihi Buxoriy”ning ikkinchi jildida yozilgan bir necha hadisi sharifni Vasliy janoblarining xotirlarig‘a yetkurarmizkim, mazmuni shuldir: “Ummul mo‘minin hazrati Oishai Siddiqaning huzurinda hazrati Abu Bakr roziyallohu anhumo kirdilarki, Iydi Qurbon kunlari edi. Ikki joriya xotun doira cholishub turub edilar. Hazrat Payg‘mbarimiz sollallohu alayhi vasallam o‘zlarini o‘rtgan edilar. Hazrat Abu Bakr alarni yoqturmadilar. Hazratimiz dedilarki: “Qo‘ying, yo Abu Bakr! Zeroki, ayyomi iyddur” – deyiladi. Va bir qancha Oisha r.a dan hadislar keltirilib, “faxshsiz va faxshlik she’rsiz” cholg‘u va o‘yin, musiqaning joizligi isbotlanadi (Idora, 1914. 5).

Teatr masalasida esa, hozirgi teatr “bid’at”ligi, bid’atlar ikki qism bo‘lib, din va millatga naf keltirsa, “yaxshi bid’at” deyilishi, din va millatga zarar keltirsa, “gunoh bid’at”, deyilishi aytiladi. “Padarkush” teatri ham bid’at bo‘lib, ammo, teatr majlisida va’zlar so‘ylanganligi, amri ba ma’ruf, nahiy az munkarni tamom ma’nosi bilan qilingani va musiqalar hamda faxshga mubtalo bo‘lmoqlikdan paydo bo‘ladigan qatl va zillatlarni ibrat uchun ko‘rsatilgani sababli har kim, albatta, bu teatrni bid’ati hasana va majlisi va’z ba nasihat deb bilinishligi bayon qilinadi. Yana undan hosil bo‘lgan aqchalar maktab, talaba va kutubxona yo bir musulmonning ehtiyoji shar’iyasiga sarf qilinsa, Vasliy janoblari degandek, “harom ustiga harom” bo‘lmay, balki u kishining xilofi ta’birincha, “halol ustig‘a halol”ligini fikr etgan kishilar bilishligi ko‘rsatiladi.

Maqola so‘nggi qismida Vasliyning “Devoni Vasliy”lariga yozilgan bir qancha baytlar keltirilib, ularda ifodalangan uyatli narsalar yozib nashr qilish shar’an va axloqan nima ekanligini lutfan Vasliy janoblari bayon qilishligi so‘raladi.

XULOSA

Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa, rivojlangan, hatto qardosh Ozarbayjon va Tataristonda teatr san’ati 19-yuzyillik oxiri 20-yuzyillik boshlarida tug‘ilib, allaqachon shakllangan edi. Zamonaviy ko‘rinishdagi milliy teatr Turkistonda ancha kechikib dunyoga keldi. Bunga asosiy sabab mustamlakachilik siyosati edi. Kuchli qarshiliklar bo‘lsa-da, milliy teatrning sahna yuzini ko‘rishi sababchilari aynan millat ziyolilari – jadidlar bo‘ldilar. Muhtoriyatni qayta tiklash yo‘lidagi urunishlar jamiyatni tubdan isloh qilishdan boshlanib, aynan matbuot va teatr vositasi bilan quvvatlandi. Ushbu o‘rinda ilk milliy jurnal – “Oyina”ning tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy g‘urur, ta’lim-tarbiya, davlatchilik masalalari milliy matbuot sahifalarida ko‘tarildi. Musulmonlar zarariga xizmat qiluvchi qarorlar, iqtisodiy qoloqlikni keltirib chiqarayotgan sabablar, ta’lim sohasida noto‘g‘ri tashkil etilayotgan tadbirlar, ijtimoiy himoyada yuz berayotgan haqsizliklar milliy matbuotda ham milliy teatrda ham o‘z aksini topdi. Matbuot ham teatr ham millat kelajagi bo‘lmish yoshlarni siyosiy maqsad yo‘lida birlashtirmoq uchun bir vosita bo‘ldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avloniy, A. (1914. 2). Teatr xususida munozara. Sadoi Turkiston.
2. Behbudiy, M. (1914. 29). Teatr nadur? Oyina, 550 - 553.
3. Behbudiy, M. (1914. 30). Samarqandda milliy teatr. Oyina, 595.
4. Behbudiy, M. (1914. 6). Teatr. Oyina, 135 - 136.
5. Idora. (1914. 5). Teatru, musiqiy, she’r. Oyina, 111 - 1114.
6. Karimov, N. (2016). Jadid teatrining milliy manbalariga doir. “Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g’oyaviy asoslari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, (pp. 128 - 136). Toshkent.
7. Mansuriy, A. (1914. 21). Hisob. Oyina, 300 - 301.
8. Milliy. (1914. 31). Teatru. Oyina, 618.
9. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1913. 10). Samarqandda teatr. Oyina, 234.
10. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1913. 8). O’rupada teatrular. Oyina, 194.
11. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 12). Samarqandda teatr. Oyina, 285.
12. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 14). Turkistonda birinchi milliy teatr. Oyina, 227 - 231.
13. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 15). Samarqandda teatr. Oyina, 262 - 263.
14. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 35). Samarqand xabarlari. Oyina, 840.
15. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 36). Tatarcha teatrular hisobiysi. Oyina, 862 - 863.

16. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 37). Andijonda teatru. Oyina, 888 - 889.
17. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 38). Samarqandda musulmoncha teatru. Oyina, 913.
18. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 40). Milliy teatru. Oyina, 962 - 963.
19. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1914. 41). Teatr e’loni. Oyina, 992.
20. Muallif nomi ko’rsatilmagan. (1915. 8). Xo’jandda teatru. Oyina, 206.
21. Muxbir. (1914. 23). Kattaqo’rg’onda teatr. Oyina, 349.
22. Sangirov, B. Y. (2019). O’zbek teatrida etnomadaniy an’analar talqini. “Teatr san’ati” ixtisosligi bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.
23. Tamosho qilg’uvchi. (1914. 21). Xo’qand teatrinda. Oyina, 299.
24. Tavallo. (1914. 27). Nodon kishilarimizning teatrdan olgan taassuroti. Turkiston viloyatining gazeti.
25. Tomoshabin. (1914. 22). Buxoroda milliy teatr. Oyina, 326.
26. Toshkentda o’lka tilidagi birinchi spektakl. (1914. 18). Turkiston viloyatining gazeti.
27. Tuzaljonboyf. (1914. 22). Toshkandda milliy teatr. Oyina, 324 - 325.
28. Каримов, Н. (2016). Жадид театри. -Тошкент.
29. Ризаев, Ш. (1997). Жадид драмаси. -Тошкент: «Шарқ» нашриёти.

REFERENCES

1. Avloniy, A. (1914. 2). Teatr xususida munozara. Sadoi Turkiston.
2. Behbudiy, M. (1914. 29). Teatr nadur? Oyina, 550 - 553.
3. Behbudiy, M. (1914. 30). Samarqandda milliy teatr. Oyina, 595.
4. Behbudiy, M. (1914. 6). Teatr. Oyina, 135 - 136.
5. Idora. (1914. 5). Teatru, musiqiy, she’r. Oyina, 111 - 1114.
6. Karimov, N. (2016). Jadid teatrining milliy manbalariga doir. "Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, (pp. 128 - 136). Toshkent.
7. Mansuriy, A. (1914. 21). Hisob. Oyina, 300 - 301.
8. Milliy. (1914. 31). Teatru. Oyina, 618.
9. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1913. 10). Samarqandda teatr. Oyina, 234.
10. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1913. 8). O‘rupada teatrular. Oyina, 194.
11. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 12). Samarqandda teatr. Oyina, 285.
12. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 14). Turkistonda birinchi milliy teatr. Oyina, 227 - 231.
13. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 15). Samarqandda teatr. Oyina, 262 - 263.
14. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 35). Samarqand xabarlari. Oyina, 840.
15. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 36). Tatarcha teatrular hisobiysi. Oyina, 862 - 863.
16. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 37). Andijonda teatru. Oyina, 888 - 889.
17. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 38). Samarqandda musulmoncha teatru. Oyina, 913.
18. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 40). Milliy teatru. Oyina, 962 - 963.
19. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1914. 41). Teatr e’loni. Oyina, 992.
20. Muallif nomi ko‘rsatilmagan. (1915. 8). Xo‘jandda teatru. Oyina, 206.
21. Muxbir. (1914. 23). Kattaqo‘rg‘onda teatr. Oyina, 349.
22. Sangirov, B. Y. (2019). O‘zbek teatrida etnomadaniy an’analar talqini. "Teatr san’ati" ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.
23. Tamosho qilg‘uvchi. (1914. 21). Xo‘qand teatrinda. Oyina, 299.
24. Tavallo. (1914. 27). Nodon kishilarimizning teatrdan olgan taassuroti. Turkiston viloyatining gazeti.
25. Tomoshabin. (1914. 22). Buxoroda milliy teatr. Oyina, 326.
26. Toshkentda o‘lka tilidagi birinchi spektakl. (1914. 18). Turkiston viloyatining gazeti.
27. Tuzaljonboyf. (1914. 22). Toshkandda milliy teatr. Oyina, 324 - 325.
28. Karimov, N. (2016). Jadid teatri. -Toshkent.
29. Rizayev, Sh. (1997). Jadid dramasi. -Toshkent: Sharq.